

---

## Yuksak mukofot muborak bo'lsin!

Tadbirkorlar kuni munosabati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan, mamlakatimizda tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini keng joriy etish borasida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, respublikamizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini oshirishga katta hissa qo'shib kelayotgani, o'zining tashabbuskorligi, bilim va tajribasini yaqqol namoyon etib, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi farovonligini yuksaltirish yo'lida alohida ibrat va namuna ko'rsatayotgani, shuningdek, jamiyatda o'zaro ko'mak, saxovat va mehr-oqibatni kuchaytirishga qaratilgan ezgu ishlardagi faol ishtiroki uchun mukofotlanganlar orasidan Shokirjon Ahmadjonov ham o'rin oldi.

Rishton tumanidagi «Axmadjonov Shokirjon Nosirjon o'g'li» kulolchilik korxonasi rahbari Ahmadjonov Shokirjon Nosirjon o'g'li «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

2022-08-22 06:06:55